



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 210 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitora Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarining ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	



RUSIYZABON O'QUVCHILARNING O'ZBEKCHA BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISHDA MASHQLARNING O'RNI

Salisheva Zilola Ismoilovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ikkinchi til ta'limida o'quvchilarning bog'lanishli og'zaki nutqini rivojlantirishda mashqlar tizimining metodik ahamiyati tahlil qilingan. Unda grammatik bilimlarni nutqiy faoliyat turlari bilan integratsiyalash, tinglab tushunish va monologik nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishning didaktik asoslari yoritilgan.

Shuningdek, audiomatnlar, tayanch so'zlar, vaziyatli topshiriqlar, rolli o'yinlar, ijodiy qayta bayon hamda interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, eshitilgan matnni anglash, mazmunni izchil qayta ifodalash va o'z fikrini mantiqiy bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mashqlar tizimi mazmunan bog'langan, kommunikativ yo'naltirilgan va real nutqiy vaziyatlarga mos tashkil etilganda bog'lanishli og'zaki nutq kompetensiyasini samarali rivojlantirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: ikkinchi til ta'limi, bog'lanishli og'zaki nutq, nutqiy kompetensiya, tinglab tushunish, audiomatn, mashqlar tizimi, monologik nutq, kommunikativ topshiriqlar.

Abstract: This article examines the methodological significance of a system of exercises in developing students' coherent oral speech in second language education. It analyzes the didactic foundations of integrating grammatical knowledge with different types of speech activities, as well as the step-by-step development of listening comprehension and monologic speech.

Particular attention is paid to the use of audio texts, key words, situational tasks, role plays, creative retelling, and interactive teaching methods as effective tools for enhancing students' independent thinking, comprehension of spoken texts, coherent reproduction of content, and logical expression of their own ideas. The study concludes that a system of exercises designed to be meaningful, communicatively oriented, and closely connected with authentic speech situations significantly contributes to the effective development of coherent oral communication skills.

Key words: second language education, coherent oral speech, speech competence, listening comprehension, audio texts, system of exercises, monologic speech, communicative tasks.

Аннотация: В статье рассматривается методическое значение системы упражнений в развитии связной устной речи учащихся при обучении второму языку. Анализируются дидактические основы интеграции грамматических знаний с различными видами речевой деятельности, а также поэтапного формирования навыков аудирования и монологической речи.

Особое внимание уделяется использованию аудиотекстов, опорных слов, ситуативных заданий, ролевых игр, творческого пересказа и интерактивных методов как эффективных средств развития самостоятельного мышления, понимания прослушанного текста, последовательного воспроизведения его содержания и логичного выражения собственного мнения. Обосновано, что система упражнений должна быть содержательно взаимосвязанной, коммуникативно ориентированной и соответствовать реальным речевым ситуациям, что обеспечивает эффективное развитие связной устной речи обучающихся.

Ключевые слова: обучение второму языку, связная устная речь, речевая компетенция, аудирование, аудиотекст, система упражнений, монологическая речь, коммуникативные задания.

KIRISH

Bugungi kunda til ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ayniqsa, ikkinchi tilni o'rganish jarayonida ularning og'zaki muloqotga kirisha olish malakasini shakllantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Tilni o'rganish faqat grammatik qoidalarni bilish yoki alohida so'zlarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining real nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini aniq, izchil va bog'lanishli tarzda ifodalay



olishini ham talab etadi. Shu jihatdan ikkinchi til ta'limida mashqlar tizimini to'g'ri tashkil etish, ularni kommunikativ maqsadga yo'naltirish hamda bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda o'quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarur. Ayniqsa, og'zaki nutqni shakllantirishda tinglab tushunish mashqlarining o'rni katta, chunki o'quvchi, avvalo, eshitilgan nutqni anglaydi, mazmunni idrok etadi, so'ngra uni qayta bayon qilish yoki unga munosabat bildirish orqali muloqotga kirishadi. Shu sababli audiomatnlar, tayanch so'zlar, vaziyatli topshiriqlar, rolli o'yinlar, ijodiy bayon va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda ikkinchi til ta'limida qo'llanilayotgan mashqlar o'quvchilarning erkin muloqot yuritish, eshitganini tushunish va mustaqil fikrini og'zaki bayon qilish malakalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Bu esa mashqlar mazmuni, ularning izchilligi, kommunikativ yo'nalishi hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unligini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Mashqlar o'quvchi uchun qiziqarli, mazmunan bog'lanishli, real hayotiy vaziyatlarga yaqin va mustaqil fikrlashga undaydigan bo'lgandagina ular kutilgan natijani beradi.

Mazkur maqolada ikkinchi til ta'limida o'quvchilarning bog'lanishli og'zaki nutqini rivojlantirishda mashqlar tizimining o'rni, tinglab tushunish mashqlarining metodik imkoniyatlari hamda audiomatnlar asosida monologik nutqni shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning eshitilgan matnni anglash, mazmunini qayta bayon qilish, asosiy fikrni ajratish, munosabat bildirish va ijodiy nutq yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq turlari metodik jihatdan yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada foydalanilgan ilmiy-metodik adabiyotlar ikkinchi til ta'limida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, mashqlar tizimini takomillashtirish hamda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish masalalarini yoritishga xizmat qiladi.

L. V. Volkova tadqiqotida grammatik jihatdan to'g'ri va bog'lanishli nutqqa o'rgatish bosqichlari asoslab berilgan bo'lib, ushbu yondashuv maqolada monologik nutqni shakllantirish jarayonini izohlashda muhim nazariy manba sifatida qo'llanilgan.

I. A. Zimnyayaning pedagogik psixologiyaga oid qarashlari esa malaka va ko'nikmalarning mashqlar orqali avtomatlashuvi, o'quvchining faol nutqiy harakatga kirishishi masalalarini tushuntirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

R. A. Yo'ldoshevning o'zbek tili darslarida og'zaki nutqni rivojlantirishga oid monografiyasi tinglab tushunish va o'quvchilarni ko'proq gapirtirish orqali nutqiy faollikni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

E. Ya. Melkumyan tadqiqotida tabiiy nutqiy vaziyat hamda grammatik mexanizmlarni amaliy nutqda shakllantirish masalalari yoritilgan.

X. S. Muxitdinovanning ishlari esa o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda mashqlar tizimini zamonaviy ta'lim talablari asosida takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Ye. I. Passov, L. V. Kibireva va E. Kollarova kommunikativ ta'lim konsepsiyasi asosida mashqlarning mazmunan bog'lanishli, axborotga boy va fikr uyg'otuvchi bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

O'. Hoshimov va I. Yoqubovning metodik qarashlari esa grammatik bilimlarni nutqiy faoliyat turlari bilan uzviy bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mazkur adabiyotlar maqolaning ilmiy-metodik asosini mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, til ta'limida mashq o'quv mashg'ulotlarining alohida turi bo'lib, ular yordamida berilgan bilimlar asosida o'quvchida tegishli malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Ona tili ta'limidan farqli ravishda ikkinchi tilni o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muomala-muloqot yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilishi ko'zda tutiladi.

I. A. Zimnyayaning fikricha, tilga o'rgatishda ilk bosqichning asosiy vazifasi avvaldan tayyorlangan mashqlar vositasida o'quvchiga lisoniy bilim berishni tashkil qilish bo'lsa, keyingi bosqichda shunday ta'lim sharoitini yaratish lozimki, bunda o'quvchi o'rgatuvchidan kommunikativ topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan bilimni "tortib" olish imkoniyatiga ega bo'lsin [2, 384-b.]. Shu tarzda mashqlarning muayyan tartib asosida tizimli ravishda berilishi o'quvchining bilim va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga hamda o'quvchini nutqqa olib chiqishga xizmat qiladi.

Metodist olimlar O'. Hoshimov va I. Yoqubovlarning fikricha, ikkinchi tilga o'qitish metodikasida mashqlar ham matn, ham grammatik material ustida ishlashga yo'naltirilishi bois to'rt bosqichga bo'lib o'rganilishi kerak: birinchi bosqichda grammatik bilimni shakllantirish, ya'ni grammatik topshiriqni qoidali, qoidasiz yoki namu-



naga muvofiq bajarish; ikkinchi bosqichda grammatik ma'lumotlarni og'zaki nutqda qo'llash bo'yicha malaka hosil qildirish (suhbat matnlari, vaziyatli topshiriqlar, rolli o'yinlar orqali); uchinchi bosqichda mashqlar vositasida hosil qilinadigan grammatik malakalarni nutqiy faoliyat turlari bilan bog'lash; to'rtinchi bosqichda esa hosil qilingan grammatik malakalarni o'zaro fikr almashishda erkin qo'llay olishni ta'minlashga qaratilishi lozim [7, 227-b.].

O'quvchilarni ikkinchi tilda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bog'lanishli nutqqa o'rgatish yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan L. V. Volkova aynan monologik nutqqa o'rgatish jarayonida uch bosqichda qo'llanadigan mashqlarni bajarishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- *1-bosqich* - fikrni bog'lanishli ifodalashga tayyorlanish;
- *2-bosqich* - tayyorlangan bog'lanishli nutqni bayon etish;
- *3-bosqich* - tayyorlanmagan bog'lanishli nutqni bayon etish [1, 116-b.].

Tadqiqotchining fikricha, uchinchi bosqich o'quvchilarning ikkinchi tilda hosil qiladigan ko'nikma va malakalarining eng oliy bosqichi bo'lib, ushbu bosqichda o'quvchilar o'z fikrlarini ikkinchi tilda hech qanday tayyorgarliksiz, erkin va mustaqil tarzda bog'lanishli ifodalash malakalariga ega bo'lishlari lozim.

Ikkinchi til ta'limida mashqlar aniq bir maqsadga yo'naltirilgandagina bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishga, fikrlarning izchil o'sib borishiga va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ye. I. Passov va P. B. Gurvichlarning ta'kidlashicha, har qanday mashq turi haqiqiy voqelikni aks ettirishi, mazmun-mohiyat jihatidan bog'lanishli, axborot beradigan va fikr uyg'otadigan bo'lishi zarur [6, 6-b.]. Mashqlar bog'lanishli, nima haqdadir axborot beradigan, biror fikrni ilgari suradigan matnlardan iborat bo'lgandagina ular qiziqarli bo'ladi va o'quvchining diqqatini torta oladi. Bog'lanishli matnlar tabiiy nutqiy vaziyatni vujudga keltirishga, so'zlar va grammatik shakllarning bevosita nutq jarayonida amaliy qo'llanishini ko'rsatishga xizmat qiladi.

E. Ya. Melkumyaning qayd etishicha: "Tabiiy nutqiy vaziyatni vujudga keltirish va fikrni tabiiy holda bog'lanishli ifodalash, shubhasiz, ko'nikmalarning mustahkam egallanishini ta'minlaydi. Shu bois nutqiy vaziyat grammatik mexanizmlarni ishlab chiqish jarayonining ilk bosqichi - materialni taqdim etishdan boshlab namoyish etib boriladi" [4, 17-b.].

Haqiqatan ham, mashqlar shunday tuzilishi kerakki, ular o'quvchilarga real hayot va atrof-voqelik haqida ma'lumot bersin, berilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otsin hamda shu asosda mustaqil fikrga ega bo'lishga va jamoaga o'z fikrini yetkazishga intilish hissini uyg'otsin.

Nutqiy ko'nikmalar nutq faoliyatining to'rt asosiy turi: o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuvni egalash orqali yuzaga keladi. Ushbu jarayonda nutq faoliyatining barcha turlari bir-biri bilan bog'liq holda bosqichma-bosqich o'zlashtirib borilishi talab etiladi, chunki ikkinchi tilda o'zaro axborot almashish, og'zaki va yozma muloqot yurita olish malakasi tinglab tushunish va gapirish orqali vujudga keladi. Mazkur nutq amallarini mashqlar vositasida o'zaro bog'liq holda rivojlantirib borish nutqiy faoliyatning avtomatlashtirilgan tarzda mustaqil va erkin qo'llay olish qobiliyati - malakani hosil qilishga yordam beradi. Muloqot jarayonida malakaning hosil qilinishi kommunikativ maqsadning asosini tashkil etadi. I. A. Zimnyaning ta'rificha, "malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir" [2, 142-b.].

Og'zaki nutq ko'nikma va malakalarining yuzaga kelishi, shakllanishi va takomillashishi ikki muhim bosqichni qamrab oladi: birinchi bosqich - eshitish ko'nikmalarini hosil qilish va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishdan; ikkinchi bosqich - og'zaki so'zlash ko'nikmalarini hosil qilish va gapirish malakalarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Mazkur ikki malakani rivojlantirish:

- bog'lanishli nutqqa tayyorlov mashqlari;
- matnni so'zlab berishga qaratilgan gapirish mashqlari;
- monologik nutq jarayonidagi xatolarni bartaraf qilishga qaratilgan mashqlarni bajartirishni taqozo etadi.

Bog'lanishli nutqqa tayyorlov mashqlari ham bir necha guruhga bo'linadi. Mashqlarning birinchi guruhi reseptiv mashqlar bo'lib, kalit so'zlar, tayanch iboralar asosida matn mazmunini o'zlashtirish, matnni mazmuniy qismlarga bo'lish, har bir qismga tayanch gaplar yozish, matnni soddalashtirish yoki ixchamlashtirish kabi topshiriqlar orqali matnni samarali o'zlashtirishga qaratiladi. Mashqlarning ikkinchi guruhi reproduktiv-mahsulдор mashqlardan iborat bo'lib, bunda matn mazmunini o'zlashtirish, matn mazmuniga munosabat bildirish, undagi muammolar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish, matndagi axborotni o'quvchi uchun uning ahamiyatligi nuqtai nazaridan baholash, o'quvchi matndan qanday yangiliklar olganligi haqida axborot berishni rivojlantirish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratiladi. Uchinchi guruh mashqlarining maqsadi hosil qilingan ko'nikma va malakalarni tabiiy muloqot vaziyatlarida qo'llay olish malakasini rivojlantirishdan iborat. Bu malakalar matn mazmuni haqida xulosa bildirish, qahramon faoliyatini asoslash, matnda ko'tarilgan muammolar yuzasidan bahs-munozara tashkil etish, matnni davom ettirish kabilar yordamida amalga oshiriladi.



Xorijiy tillar ta'limida mashqlarni turlarga ajratish hamda ularning qo'llanishi borasida anchagina tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lishiga qaramay, tillarni o'qitishda qo'llanilayotgan mashqlar hamisha ham kutilgan natijani bermayotganini qayd etish mumkin. Jumladan, X. Muxitdinova rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitishda hozirgi kunda qo'llanib kelinayotgan mashqlarning turlari, ularda berilayotgan materiallar va topshiriqlar tizimi ularning o'zbekcha muloqot yuritishi hamda o'zbek tilini o'rganishini jadallashtirish uchun yetarli xizmat qilmayotgani haqida shunday yozadi: "Hozirgi kunda o'zbek tilini o'qitish tamoyillari, ularda beriladigan o'quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o'zbek tilini o'rgatishga yo'naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta'lim mashg'ulotlariga moslashtirib qo'llash yo'llarini topish o'zbek tili ta'limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir" [5, 81-84-b.]. Buning uchun mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik va pedagogik tadqiqotlarda berilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida takomillashtirish, aynan rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitish uchun mos mashqlar va topshiriqlar tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, gapirish va tinglash bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalardir. Og'zaki muloqot suhbatdosh nutqini bevosita eshitish va tushungan holda unga javob berishdan iborat bo'lib, mazkur jarayonda suhbatdoshlarning har biri ham tinglovchi, ham so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shu bois monologik nutqni o'stirishda nutqqa tayyorlov mashqlarida eshitishga o'rgatish mashqlari muhim o'rin tutadi. Eshitish mashqlari o'quvchilarning lug'at boyligi, yozma va og'zaki savodxonligini oshirish, o'zbek tilidagi orfoepik talaffuz me'yorlarini yaxshilash hamda qoidalarni amaliy qo'llay olishga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bunda, ayniqsa, audiomatnlardan foydalanish katta samara beradi. Eshitishga o'rgatish mashqlarini matnni qabul qilishga tayyorlash, audiomatnni tinglab qabul qilish hamda eshitilgan matn asosida o'tkaziladigan mashqlar guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh mashqlari, ya'ni matnni tinglashga tayyorlov mashqlarining maqsadi o'quvchilarni qiziqitirish, matnlarni tushunish bilan bog'liq lingvistik va psixologik qiyinchiliklarni bartaraf qilish, matnda berilayotgan mavzu doirasida o'quvchilar ega bo'lgan nutqiy va hayotiy tajribalarini ishga solish hamda axborotni, uning tarkibi va mazmunini yaxshi eslab qolish uchun yo'nalishtirish berishdan iborat bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga qanday matnni eshitishi haqida xabar berishi; audiomatnda uchraydigan notanish so'zlar ma'nosini tushuntirishi; tayanch so'zlar va jumlar bilan avvaldan tanishtirishi; matnning asosiy mazmuni haqida bir-ikki jumla bilan axborot berishi; audiomatning qisqa, soddalashtirilgan variantini berishi; eshittiriladigan matn mavzusi va mazmuni bo'yicha asosiy tushunchalar haqida ma'lumot berishi kerak bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, eshitish mashqlari tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi va, ayni paytda, o'quvchilarda tinglab tushunganlarini so'zlab berish ko'nikmalarini takomillashtirishga ham zamin tayyorlaydi. Afsuski, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda mashg'ulotlarda eshitish mashqlaridan ko'p foydalanilmaydi. Mazkur holat, ko'pincha, rus guruhlar o'quvchilarining til muhitida yashayotganligi bilan izohlanadi. Biroq o'quv mashg'ulotlarida tinglab tushunish bo'yicha maxsus mashqlar olib borilmasligi o'quvchilarda eshitganlarini mustaqil so'zlab berish ko'nikmalarining shakllanmasligiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda ko'pchilik rus guruhlar o'quvchilarining o'zbek tilida "ponimayu, no ne umeyu govorit" degan izoh bilan cheklanishlari shundan dalolat beradi. Bizningcha, rus guruhlar o'quvchilarini monologik nutqqa o'rgatishda nutqqa tayyorlov bosqichiga, xususan, tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish nihoyatda zarur.

Shu o'rinda R. Yo'ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: "O'zbek tili darslarida nutqiy faoliyat turlaridan biri bo'lgan nutqni tinglab tushunishni o'rganishda eshitish mashqlarining o'z o'rnini bor. Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar o'zbek tilidagi muloqotda ishtirok etish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan xabarlarini tinglab borish, sahna asarlarini, filmlarni ongli tomosha qilish layoqatini qo'lga kiritadilar, ularda tegishli BKMLar shakllanadi" [3, 144-b.].

Ikkinchi guruh mashqlari esa matnni eshitish jarayonidan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi avvaldan kommunikativ vazifani belgilab olishi shart. Ya'ni matn nima maqsadda eshittirilayotganligi, o'quvchilar matnni qanday tinglashlari kerakligi hamda matn mazmunini tushunish jarayoni qanday kechishi aniq rejalashtirilishi kerak bo'ladi. Bu matndagi asosiy va qo'shimcha axborotlarni ajrata olish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Matnni eshitishning ilk bosqichida o'quvchilarga matnning asosiy mazmunini tushunish yoki kerakli axborotni aniqlash yuzasidan mashqlar bajartirish maqsadga muvofiq. Bunda fikrlarni jamlab olish, xotirada saqlashga qaratilgan tayanch so'zlar va jumalarni qayd qilib borish, audiomatning zarur o'rinlarini yozib borish kabi mashqlar o'quvchilarning o'z fikrini og'zaki ifodalashida tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ikkinchi til ta'limida eshitish mashqlari jarayonida matnning bosma variantiga tayanish ham samarali natijalar beradi. Bunday usul matn mazmunini tushunishni yengillashtiradi, matnni yaxshi eslab qolish va tez o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Uchinchi guruh, ya'ni nazorat mashqlari o'quvchilarda audiomatdagi axborotni u yoki bu darajada izohlash, sharhlash, tahlil qilish bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda matn mazmunini to'liq o'zlashtirishga qaratiladi. Mashqlarning bu guruhi matnni qismlarga bo'lib gapirib berish; matnni davom ettirish; o'quvchi uchun yangi, ahamiyatli, qiziqarli yoki ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan va qiziqarli bo'lmagan narsalarni izohlash; tayanch so'zlar yoki jumalarga tayanib voqea, hodisa hamda qahramonlar xatti-harakatlarini baholash; eshitish



jarayonida to'ldirilgan jadval va chizmalarga asoslanib savollarga javob berish; matn mazmuniga mos sarlavha tanlash va sarlavhani izohlash kabi topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajribamiz natijalari sifatida quyida yuqori sinflarda o'quvchilarning matnni tinglab tushunish va og'zaki nutq jarayonida so'z va gaplarni to'g'ri talaffuz qilish, tushunganlarini bayon qilish hamda fikrga munosabat bildirish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan audiomatnlar va ularga berilgan topshiriqlar variantlaridan keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

1. Audiomatnni diqqat bilan tinglang, tayanch so'zlarni yozib boring. Shu asosda matnni tiklang va matn mazmunini ijodiy bayon qiling.

Xitoyliklar uchun nilufar

Xitoyliklar uchun nilufar musaffolik va oliyjanoblik ramzi deb hisoblangan. Balchiq va loyqa suvda o'sgani bilan u hech qachon bulg'anmaydi. Og'ir qismatga tan bermagan, yomonlik oldida tiz cho'kmagan, o'ziga gard yuqtirmagan odamlarni nilufarga qiyoslashadi. Nilufar sokin hovuzlarda iyul-avgust oylarining eng issiq kunlarida gullaydi. O'zining barglari, toza va nafis guli, yirik gultojlari bilan bu gul unutilmas taassurot qoldiradi. Xitoyliklar ayollarning orastaligini nilufarga qiyoslashgan. Nilufar faqat uch kun gullab turadi: ertalab ochiladi, kechqurun yopiladi. Nafaqat xitoyliklar, balki butun dunyo xalqlari nilufarni go'zallikda tanho, tengi yo'q gul deb hisoblaydi.

2. Audiomatnni tinglang. Matndagi asosiy fikrni aniqlang va muammoni mantiqiy asoslab, o'z xulosalaringizni "Yelpig'ich" metodi asosida yoriting.

Vaqting ketdi - baxting ketdi

Bir donishmanddan: "Siz umringizda hech xato qilganmisiz?" deb so'radilar.

"Qilganman", - debdi donishmand. - "Uch marta xazinamni yo'qotganman. Avval ne mashaqqat bilan to'plagan boyligimni yo'qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boylik orttirdim. So'ng do'stimni yo'qotdim. U haqiqiy do'st emas ekan, boshimga tashvish tushganda tashlab ketdi, do'stligimizga xiyonat qildi. Modomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do'st bo'la olmaydi, deb o'zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do'st topdim. Ammo bu orada shunday bir xazinamni yo'qotdimki, buning uchun o'zimni hech kechira olmayman. Men uni o'z qo'lim bilan yo'qotib qo'ydim. Bu - bekor o'tgan kunlarim, bekor kechgan oylarim, bekor o'tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar yangidan tug'ilganimda edi, o'sha o'tgan damlarimni ham foydali ishlarga - o'qishga, mehnatga sarflagan bo'lardim..."

Qissadan hissa shuki...

3. Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" she'rini tinglang, nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'z va so'z birikmalarini qo'ying, mazmunini "Jigso" strategiyasi asosida o'rganing va ijodiy matn yarating.
4. Audiomatnni tinglang va "Taxmin" strategiyasi asosida davomini o'zingiz tuzib yakunlang. Bunda o'quvchilarga audiomatnning boshlanish qismi eshittiriladi. O'quvchilar esa voqealar rivojini o'zlari taxmin qiladilar va yakunlaydilar.
5. "Men suxandonman". Audiomatnni bir necha marta tinglab, diktrolini o'zingiz bajaring.

Matnni tinglab tushunish va so'zlab berish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ushbu mashq va topshiriqlarni zamonaviy ta'lim muhitida audiovizual vositalar yordamida bayon va insho yozishga qaratilgan topshiriqlar deb hisoblash ham mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilidan yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarda mashqlar shunday tuzilishi va taqdim etilishi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol usullar yordamida takomillashtirilishi kerakki, ular o'quvchilarda berilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otsin, mustaqil ishlashga, qiyinchiliklarni yengib o'tishga hamda jamoaga o'z fikrini bog'lanishli tarzda yetkazishga intilish hissini shakllantirsin.

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi til ta'limida o'quvchilarning bog'lanishli og'zaki nutqini shakllantirish mashqlar tizimining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Mashqlar faqat grammatik bilimlarni mustahkamlash vositasi sifatida emas, balki o'quvchini real muloqotga tayyorlovchi, tinglab tushunish, fikrni



anglash, mazmunni qayta bayon qilish va mustaqil nutq yaratishga yo'naltiruvchi muhim ta'limiy vosita sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, audiomatnlar asosida tashkil etiladigan topshiriqlar o'quvchilarning eshitish, tushunish, talaffuz, xotira, mantiqiy fikrlash va monologik nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natija beradi.

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda mashqlar mazmunan bog'lanishli, kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan, hayotiy vaziyatlarga yaqin hamda o'quvchilarning yosh va nutqiy imkoniyatlariga mos bo'lishi zarur. Tayanch so'zlar, savol-javoblar, matnni davom ettirish, asosiy fikrni aniqlash, ijodiy bayon qilish, rolli o'yinlar va interfaol metodlar o'quvchilarni faol nutqiy jarayonga jalb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat tinglab tushunish va gapirish malakalarini, balki mustaqil fikrlash, o'z munosabatini bildirish hamda jamoa oldida izchil nutq so'zlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuning uchun zamonaviy o'zbek tili ta'limida mashqlar tizimini takomillashtirish, audiovizual vositalardan unumli foydalanish va kommunikativ yondashuvni kuchaytirish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Volkova, L. V. Obucheniye grammaticheskii pravilnoy rechi literaturno-razgovornogo stilya na II etape yazykovogo vuza (frantsuzskiy yazyk). - M., 1975. - 116 s.
2. Zimnyaya, I. A. Pedagogicheskaya psikhologiya. - M.: Logos, 2003. - 384 s.
3. Yo'ldoshev, R. A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi: monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 212 b.
4. Melkumyan, E. Ya. Metodika formirovaniya grammaticheskii pravilnoy razgovornoy rechi v yazykovom vuze: avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. - M., 1971. - 17 s.
5. Muxitdinova, X. S. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. d-r ... diss. - Toshkent, 2011. - 390 b.
6. Passov, Ye. I., Kibireva, L. V., Kollarova, E. Konsepsiya kommunikativnogo inoyazychnogo obrazovaniya (teoriya i yeye realizatsiya). - SPb.: Zlatoust, 2007. - 200 s.
7. Hoshimov, O'. H., Yoqubov, I. Ya. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Sharq, 2003. - 301 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.